



3-dars. Predmetlarning joylashishi

Tayanch soʻzlar:

tepada
pastda
chapda
oʻngda



Munchoqni boʻyab
tugallang.



1. Yuqorida berilgan **tayanch soʻzlardan** foydalanib, Oʻzbekistonning bayrogʻi va gerbini taʼriflab bering.



2. Quyidagi rasmlar orasidagi farqlarni toping va ularni aylanaga oling. Ular qayerda joylashgan?



1




2



3. Rasmdagi **chapdan** birinchi munchoqni toʻq sariq, **oʻngdan** birinchisini koʻk, qolganlarini esa yashil rangga boʻyang.






Har bir katakning 4 ta tomoni bor:
chap, o'ng, tepa, past.



4. Davom ettiring. Birinchi qatorda katakning qanday tomonlarini chizdingiz? Ikkinchi qatorda-chi?



5. Berilgan , ,  shakllarni shunday yelimlangki, kvadrat uchburchakdan o'ng tomonda, doiradan chap tomonda bo'lsin.



6. Katakchalar ichiga strelkalarni shunday chizingki, ulardan ikkitasi **o'ng**, uchtasi esa **chap** tomonni ko'rsatsin.



7. Umida o'zini ko'zguda shunday ko'ryapti.

Uning ko'ylagidagi sariq cho'ntakchasi qaysi tomonda?
Mushukcha Umidaning qaysi tomonida turibdi?

